

О‘Г‘IRLIKKA QARSHI KURASHISHNING NORMATIV-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Olimov Dilmurod Kamol o‘g‘li – Buxoro shahar IIO FMB 1-son IIB JQB tezkor
vakili katta leytenant

Annotasiya: Maqolada o‘g‘irlikka qarshi kurashishning huquqiy asoslari hisoblangan xalqaro hujjatlar va milliy normativ huquqiy hujjatlar o‘rganilib, ilmiy asoslantirilgan takliflar ilgari surilgan.

Tayanch so‘zlar: xalqaro-huquqiy hujjatlar, normativ-huquqiy hujjat-lar, buyruq, yo‘riqnomalar.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ БОРЬБЫ С ВОРОВСТВОМ

Аннотация. В статье исследуются международные документы и национальные нормативные правовые акты, являющиеся правовыми основами борьбы с хищениями, выдвигаются научно обоснованные предложения.

Ключевые слова: международно-правовые документы, нормативные правовые документы, приказы, инструкции.

REGULATORY AND LEGAL REGULATION OF THE FIGHT AGAINST THEFT

Annotation. The article examines international documents and national regulatory legal acts, which are the legal foundations for combating embezzlement, and puts forward scientifically sound proposals.

Keywords: *international legal documents, regulatory legal documents, orders, instructions.*

O'g'irlikka qarshi kurashishning huquqiy asoslari deganda mazkur qilmishning oldini olish va va fosh etishga xizmat qiluvchi tegishli xalqaro hujjatlar va milliy normativ-huquqiy hujjat-larga aytiladi.

Ma'lumki, jinoyatchilikka qarshi kurashishda O'zbekiston Respublikasi o'ttizdan ortiq davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yuzdan ortiq xalqaro hujjatlarni qabul qilinishiga erishilgan. O'g'irlikka qarshi kurashishning huquqiy asoslariga oid xalqaro-huquqiy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi organi tomonidan ratifikatsiya qilingan, ijro etuvchi organ va uning tarkibidagi vazirlik tomonidan tasdiqlangan ayrim hujjatlarni misol qilish mumkin. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida: "har bir inson yakka holda, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga egaligi"(17-m)[1]; jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida halqaro huquqiy hujjatlarning mazmunida hamkorlikning yo'nalishi sifatida tezkor-qidiruv faoliyatining maqsad va vazifalarini hal etishga qaratilgan turli jinoyat turiga qarshi kurashishda ishtirokchi davlatlar o'rtasida hamkorlik qilinishi belgilangan bo'lib, ushbu jinoyatlar ro'yxatida mulkka qarshi jinoyatlarning nazarda tutilgani juda muhim xisoblanib, o'g'irlikka qarshi kurashishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Latviya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'rtasidagi "Hamkorlik to'g'risida"gi bitimda hamkorlikning yo'nalishlardan biri sifatida mol-mulkiga qarshi kurash, jinoyatchilarni, tergov va suddan, jazo muddatini o'tashdan yashirinib yurgan shaxslarni qidirib topish (1-m); tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar va

ularga daxldor bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi operativ-qidiruv, operativ-ma‘lumotnoma va kriminalistik axborot hujjatlarini, shuningdek arxiv ma‘lumotlarini bir-biriga yuborib turish; operativ-qidiruv tadbirlarini va protsessual harakatlarni amalga oshirish (2-m)[2]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Ukraina Hukumati o‘rtasidagi “Jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida”gi bitimda hamkorlikning yo‘nalishlardan biri sifatida mulkka qarshi jinoyatlar (2-m); hamkorlikning shakli sifatida tayyorlanayotgan yoxud sodir etilgan jinoyatlar va ularga aloqador jismoniy va huquqiy shaxslar hamda tashkilotlar haqida qiziqish uyg‘otuvchi axborotlar almashlash; tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi so‘rovlarni bajarish(3-m)[3]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya federatsiyasi Hukumati o‘rtasida “Jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik qilish to‘g‘risida”gi bitimda hamkorlikning yo‘nalishlardan biri mulkiga qarshi jinoyatlar (2-m); hamkorlik shakllaridan biri tayyorlangan yoki sodir etilgan jinoyatlar va ularga aloqador jismoniy hamda yuridik shaxslar va tashkilotlar haqida qiziqish uyg‘otadigan axborotlarni o‘zaro almashish; tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazish to‘g‘risida so‘rovlarni bajarish; jinoiy-qidiruvdan yoki jazoni o‘tashdan bekinib yurgan shaxslarni ushlab (3-m)[4]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Gruziya Respublikasi Hukumati o‘rtasida “Jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik qilish to‘g‘risida”gi bitimda hamkorlikning yo‘nalishlardan biri sifatida shaxsning mulkiga qarshi jinoyatlar (2-m); hamkorlik shakllaridan biri sifatida tayyorlangan yoki sodir etilgan jinoyatlar va ularga aloqador jismoniy hamda yuridik shaxslar va tashkilotlar haqida qiziqish uyg‘otadigan axborotlarni o‘zaro almashish; tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazish to‘g‘risida so‘rovlarni bajarish; jinoiy-qidiruvdan yoki jazoni o‘tashdan bekinib yurgan shaxslarni yashiringan

joyini aniqlash (3-m)[4]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati bilan “Uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa xavfli jinoyatlarga qarshi kurashishda hamkorlik to‘g‘risida”gi kelishuvda mulkka va mulkiy turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish (3-m)[5]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qozog‘iston Respublikasi Hukumati o‘rtasida “Jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risida”gi bitimda shaxsning mulkiga qarshi jinoyatlar (2-m); tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar va ularga aloqador jismoniy va yuridik shaxslar, tashkilotlar to‘g‘risida qiziqish uyg‘otadigan axborotlarni o‘zaro almashish; tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi so‘rovlarni bajarish; jinoiy ta‘qibdan yoki jazoni o‘tashdan qochib yurganlarni ushlab (3-m)[6]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Bolgariya Respublikasi Hukumati o‘rtasida “Jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik to‘g‘risida”gi bitimda uyushgan jinoyatchilik (2-m); jinoyatlarni ochish, ularning oldini olish va tekshirishga asqotishi mumkin bo‘lgan axborotlarni almashish (3-m)[7]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Ozarbayjon Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi “Jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risida”gi bitimda jinoyatlarni aniqlash, oldini olish va fosh etishga ko‘maklashadigan axborotni almashish; tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida so‘rovlarni bajarish (3-m)[8]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg‘iziston Respublikasi Hukumati o‘rtasida “Jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risida”gi bitimda kishining mulkiga qarshi jinoyatlar(2-m); tayyorlanayotgan yoki amalga oshirilgan jinoyatlar hamda ularga daxldor jismoniy va yuridik shaxslar hamda tashkilotlar to‘g‘risida qiziqish uyg‘otuvchi ma‘lumotlarni almashish; operativ-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi so‘rovlarni bajarish; jinoiy ta‘qibdan yoki jazoni o‘tashdan yashirinib yurgan

shaxslarni qidirish (3-m)[9]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Avstriya Respublikasi Federal Hukumati o‘rtasidagi “Xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik qilish to‘g‘risida”gi bitimda jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish hamda jamoat xavfsizligiga katta xavf tug‘diruvchi jinoyatni bartaraf qilish maqsadida axborot almashish; uyushgan guruhlar tomonidan jinoyatlarni sodir etish usullari, ularning tarkibi, tuzilishi, faoliyat doirasi va jinoiy aloqalari (3-m)[10]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Moldova Respublikasi Hukumati o‘rtasida “Jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risida”gi bitimda kishining mulkiga qarshi jinoyatlar (2-m); tayyorlanayotgan yoki amalga oshirilgan jinoyatlar hamda ularga daxldor jismoniy va yuridik shaxslar hamda tashkilotlar to‘g‘risida qiziqish uyg‘otuvchi ma’lumotlarni almashish; operativ-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi so‘rovlarni bajarish; jinoiy ta’qibdan yoki jazoni o‘tashdan yashirinib yurgan shaxslarni qidirish (3-m)[11]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Quvayt davlati Hukumati o‘rtasida “Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi bitimda uyushgan jinoyatchilik (2-m); jinoyatning oldini olish, aniqlash, bartaraf etish va fosh etishga yordam berishi mumkin bo‘lgan axborotni almashish (3-m)[12]; O‘zbekiston Respublikasi bosh Prokuraturasi va Qirg‘iz Respublikasi bosh Prokuraturasi o‘rtasida “Huquqiy yordam va hamkorlik to‘g‘risida”gi bitimda mulkka qarshi jinoyatlar (1-m); tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risida topshiriqlarni bajarish; jinoiy ta’qibdan va jazoni o‘tashdan yashiringan shaxslarning qidiruvini tashkil etish (2-m)[13]; O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Belarus Respublikasi Hukumati o‘rtasida “Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi bitimda hamkorlikning yo‘nalishlardan biri shaxsning mulkiga qarshi jinoyatlar (2-m);

hamkorlik shakllaridan biri tayyorlangan yoki sodir etilgan jinoyatlar va ularga aloqador jismoniy hamda yuridik shaxslar va tashkilotlar haqida qiziqish uyg'otadigan axborotlarni o'zaro almashish; tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish to'g'risida so'rovlarni bajarish; jinoiy-qidiruvdan yoki jazoni o'tashdan bekinib yurgan shaxslarni ushlab (3-m)[14]; O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Respublikasi Hukumati o'rtasida "Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risida"gi bitimda hamkorlik yo'nalishidan biri iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar (2-m); jinoyatlar oldini olish, aniqlash, fosh etish va tergov qilishga yordam berishi mumkin bo'lgan axborot bilan almashinish; tezkor-qidiruv tadbirlari to'g'risidagi so'rovni bajarilishi (3-m)[15]; O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Saudiya Arabistoni podshohligi Hukumati o'rtasida "Terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga, shuningdek boshqa jinoyatlarga qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risida"gi bitimda mulkka qarshi jinoyatlar (2-m); jinoyatlarni sodir etishning usullari hamda ularni aniqlash va oldini olish bo'yicha choralar to'g'risida ma'lumot almashish (3-m)[16]; Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning "Jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risida"gi kelishuvda mulkiy turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish (3-m)[17]; O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Birlashgan Arab Amirliklari Hukumati o'rtasida "Uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va jinoyatchilikning boshqa xavfli turlariga qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risida"gi bitimda hamkorlik yo'nalishidan biri iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar (2-m); jinoyatlar oldini olish, aniqlash, fosh etish va tergov qilishga yordam berishi mumkin bo'lgan axborot bilan almashinish; tezkor-qidiruv tadbirlari to'g'risidagi so'rovni bajarilishi (3-m)[18]; O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan Qozog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'rtasida

“Hamkorlik to‘g‘risida”gi bitimda mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar (2-m); tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar hamda ularga daxldor bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi qiziqtirgan ma’lumotlarni almashish; prokuror (sud) sanksiyasi talab etilmaydigan tezkor-qidiruv tadbirlarni o‘tkazish to‘g‘risida so‘rovlarni ijro etish; jinoiy ta’qibdan yashirinayotgan yoki jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni qidirish (3-m)[19–20] kabi qoidalarining bayon etilgani o‘g‘irlikka qarshi kurashishda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga, shuningdek, surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni qidirishda xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan qoidarga binoan qidiruv ishlari amalga oshiriladi. Xususan, ushbu xalqaro hujjatlarning mazmunida: “shaxslarni davlatlararo qidiruvi chora-tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi so‘rovlarni bajarish, qidiruvda bo‘lgan shaxslar to‘g‘risida tezkor-qidiruv, tezkor-ma’lumot, kriminalistik va boshqa ma’lumotlar almashish; muvofiqlashtirilgan tezkor-qidiruv faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish; tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda harakatlarni muvofiqlashtirish uchun tomonlar vakillarini ularning vakolatli organlari bilan kelishilgan holda xizmat safarlariga jo‘natish[21]; ahdlashuvchi tomonni qonunlariga ko‘ra kamida bir yil ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadigan, ushlab berishni taqozo etadigan huquqbuzarlik hisoblanishi; shaxsni ushlab berishni bir necha davlat talab qilsa, qaysi davlatga ushlab berishni so‘ralayotgan davlatni o‘zi hal qilishi[22–28] kabi normalarning belgilangani o‘g‘irlik jinoyatini sodir etgan shaxslar davlatlararo va xalqaro qidiruvda yurganida mazkur hujjat-lar talablariga binoan hamkorlikda ularni ushlab choralari ko‘riladi.

Mazkur halqaro xalqaro-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinganda 1)mulkiy turdagi jinoyatlarning bir turi sifatida o‘g‘irlikka qarshi kurash

masalasi ushbu xalqaro hujjatlarning normalari bilan tartibga solingani; 2) o'g'irlikka qarshi kurashishda tayyorlangan yoki sodir etilgan ushbu jinoyatlar va ularga aloqador jismoniy va yuridik shaxslar, tashkilotlar haqida qiziqish uyg'otadigan axborotlarni o'zaro almashish; 3) tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish to'g'risida so'rovlarni bajarish; 4) o'g'irlik sodir etib qidiruvda yurgan, jazoni o'tashdan yashirinib yurgan shaxslarni ushlab va ekstraditsiya qilishda hamkorlik qilish lozimligi haqida umumiy xulosaga kelindi.

Ushbu xalqaro-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatida belgilangan talablar asosida O'zbekiston Respublikasi IIVning Tezkor-qidiruv departamenti tasarrufidagi tezkor bo'linmalarning tezkor xodimlari o'zaro hamkorlikda o'g'irlikni sodir etgan shaxslarning davlatlarga va xalqaro qidiruvini amalga oshirish, shuningdek, talon-toraj qilingan daliliy ashyolarni tezkor-izlov guruhlarida yordamida izlab topish bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbirlari tizimli ravishda tashkil etilishi va amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 2-qismi «g» bandi(uy-joy, omborxonaga yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan bo'lsa) bo'yicha: o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilish o'g'irlik deb huquqiy baholanadi. O'g'irlik 7 turga bo'linib, mazkur qilmish ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir darajadagi o'g'irlikka ajratilgan)[29] tasniflangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jami 50 ta (36, 38¹, 39¹, 39², 48, 81, 87, 95¹, 135, 136, 137, 139, 140, 141, 162, 172, 174, 180, 182, 183, 187, 187², 213, 218, 219, 222, 225, 320¹, 320², 321, 322, 328, 329, 331, 333, 334, 336, 338, 345, 355, 364, 367, 381⁵, 381⁹, 382, 587, 588, 589, 590, 591)[30] normalarni mazmunida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi tezkor

bo‘linmalarning o‘g‘irlik yuzasidan ma‘lum funksiyalarni bajarilishiga, shu jumladan, vakolati mansabdor shaxslarning tezkor bo‘linmalarga yozma topshiriq berishi, ariza va shikoyat yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va boshqa harakatlarni amalga oshirish; dalillarni to‘plash va isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar, tezkor xodimning vakolati doirasida o‘tkaziladigan tergov harakatlari (ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo‘yish, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, ekspertiza o‘tkazish) va tezkor-qidiruv tadbirlarni o‘tkazishda e‘tiborga molik masalalar, protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish, tezkor-qidiruv faoliyatining natijalarini vakolatli sub‘ektlarga taqdim etish tartibi, nazorat qiluvchi davlat organining tezkor-qidiruv faoliyati sohasidagi vakolatlari, ichki ishlar organlarining tezkor bo‘linmasi tezkor xodimlaridan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudlar bilan hamkorlikda o‘g‘irlikni fosh etish, qidiruv ishlarini amalga oshirishda mas‘uliyat bilan yondoshgan holda tergov va protsessual harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazilishi haqidagi qoidalar bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni (3, 4, 5, 6-boblari)[31]ga binoan o‘g‘irliklarni barvaqt oldini olishda umumiy, maxsus, yakka, viktimologik profilaktik tadbirlar amalga oshirilib, ichki ishlar organlarining tezkor bo‘linmalari xodimlari Milliy Gvardiya, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda tezkor-qidiruv va profilaktik tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda 344-son “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 11,12, 13, 14, 15, 16, 18, 20, 24, 25, 26, 27, 28¹-moddalari)[32]ga binoan o‘g‘irlikka qarshi kurashda ichki ishlar organlarining tezkor bo‘linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari amalga oshiriladi.

So‘nggi 9 yilda ichki ishlar organlari tizimini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son “Ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan hamda ichki ishlar organlari jinoyatlarni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish qidiruv ishini samarali amalga oshirishni takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining tezkor-qidiruv faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi asosiy yo‘nalishlar va muhim vazifalar belgilanib¹, mazkur amaliy harakatlar o‘g‘irlikka qarshi kurashish bilan shug‘ullanuvchi ichki ishlar organlari tezkor bo‘linmalari xodimlarning shtat birligini mustahkamlanishiga e‘tibor qaratilganidan dalolat beradi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olib, quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini xavfsizligini ta‘minlashning chora-tadbirlari haqida”gi qaror loyihasi ishlab chiqilishi natijasida ikki tomon (davlat va shaxs) uchun dolzarb masalaga jiddiy e‘tibor qaratish orqali yuridik va jismoniy shaxslarning mulkka egalik qilish huquqi kafotlatlanishi ta‘minlanishiga erishish;

ikkinchidan, IIVning “O‘g‘irlikka qarshi kurashishda aholi orasida Ichki ishlar, Milliy gvardiya organlari, Qurilish va Mahalla vazirligi hamda Kadastr agentligining yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini himoya qilishning chora-tadbirlarini belgilash haqidagi qo‘shma qaror loyihasini ishlab chiqish, ushbu normativ-huquqiy hujjatning mazmunida yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan mutassadi

agentlik va vaziliklar tomonidan amalga oshiriladigan samarali chora-tadbirlarning mexanizmlarini konkret belgilab berish lozim;

uchinchidan, ichki ishlar organlari tizimida o'g'irlikka qarshi kurashish faoliyatining samaradorligini oshirishda IIVning "O'g'irlikka qarshi kurashish faoliyatini tashkil etish tartibi haqida yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'ini tayyorlab, mazkur jinoyatga qarshi kurashning samarali huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish;

to'rtinchidan, yuridik va jismoniy shaxslar mulkining xavfsizlik chorsini ko'rmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida javobgarlikni belgilash lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, uy-joydan sodir etiladigan o'g'irlikka qarshi kurashishda huquqiy asoslarining puxta mexanizmlari ishlab chiqilsa, mazkur turdagi jinoyatlar kamayishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul va e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi 1991 yil 30 sentyabrda ratifikatsiya qilgan // Elektron manba: [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz) (murojaat vaqti: 27.04.2026).

2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Latviya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bitim (1992-yil 24-aprel, Olmaota)

(O‘zbekiston Respublikasi uchun 1992-yil 24-apreldan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti:28.04.2026).

3.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Ukraina hukumati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik qilish to‘g‘risida bitim (1995-yil 20-iyun, Toshkent. 1995-yil 20-iyundan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti: 28.11.2022).

4.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik qilish to‘g‘risida bitim (1995 yil 27 iyul, Toshkent. 1995-yil 27-iyuldan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti: 28.04.2026).

5.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Gruziya Respublikasi hukumati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitim (1995-yil 4-sentyabr, Toshkent. 1995-yil 4-sentyabrdan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti: 29.04.2026).

6.Соглашение между правительством Республики Узбекистан и правительством федеративной Республики Германия о сотрудничестве в борьбе с организованной преступностью, терроризмом и другими преступлениями, представляющими повышенную опасность (Бонн 16 ноября 1995 года. Узбекистан 3 ноября 1997 года) // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti:29.04.2026).

7.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Qozog‘iston Respublikasi hukumati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitim (1998-yil 30-oktabr, Toshkent. 2005-yil 14-iyundan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti: 29.04.2026).

8.Соглашение об обмене информацией в сфере борьбы с преступностью (Астана, 22 мая 2009 года вступило в силу 28 апреля 2011 года) // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 29.04.2026).

9.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Bolgariya Respublikasi hukumati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitim (1999-yil 7-may, Toshkent. 1999 -yil 26-sentyabrdan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti: 30.04.2026).

10.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Ozarbayjon Respublikasi hukumati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitim (2000-yil 25-iyul, Boku. 2001-yil 9-iyuldan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti:30.04.2026).

11.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Qirg‘iziston Respublikasi hukumati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitim (1999-yil 9-iyul, Toshkent. 2000-yil 4-dekabrdan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 30.04.2026).

12.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Avstriya Respublikasi federal hukumati o‘rtasida xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitim (2001- yil 2-noyabr, Toshkent 2002-yil 18-maydan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti: 01.05.2026).

13.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Moldova Respublikasi hukumati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitim (2000-yil 19-dekabr, Kishinyov. 2001-yil 15-maydan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 01.05.2026).

14.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Quvayt davlati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitim (2004 yil 19

yanvar, Al-Quvayt. 2007-yil
29-avgustdan kuchga kirgan) // Elektron manba: [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz). (murojaat
vaqti: 01.05.2026).

15.O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Qirg‘iz Respublikasi
Bosh prokuraturasi o‘rtasida huquqiy yordam va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim
(2006 yil 3 oktyabr, Toshkent. 2006-yil 3-oktyabrdan kuchga kirgan) // Elektron
manba: [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz). (murojaat vaqti: 01.05.2026).

16.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Belarus Respublikasi hukumati
o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim
(2008-yil 19-iyun, Minsk. 2008-yil 24-dekabrdan kuchga kirgan) // Elektron
manba: [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz). (murojaat vaqti: 02.05.2026).

17.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Turkmaniston hukumati o‘rtasida
jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitim (2009-yil 25-
fevral, Toshkent 2009-yil 20-noyabrdan kuchga kirgan) // Elektron manba: [http://
www.lex.uz](http://www.lex.uz). (murojaat vaqti: 02.05.2026).

18.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Saudiya Arabistoni podshohligi
hukumati o‘rtasida terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik vositalari va
psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga, shuningdek boshqa jinoyatlarga
qarshi kurash sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (2010-yil 27-noyabr, Er-
riyod. 2011-yil 30-avgustdan kuchga kirgan) // Elektron manba: [http://
www.lex.uz](http://www.lex.uz). (murojaat vaqti: 02.05.2026).

20.Соглашениео сотрудничестве между правительствами государств –
членов Шанхайской организатсии сотрудничества в борьбе с преступностью
(Ташкент, 11 июня 2010 года. Вступило в силу с 11 января 2012 года) //
Elektron manba: [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz). (murojaat vaqti: 02.05.2026).

21.O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Birlashgan Arab Amirligi hukumati o‘rtasida uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va jinoyatchilikning boshqa xavfli turlariga qarshi kurash sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (2008 yil 17 mart, Abu Dabi) (2012 yil 23 martdan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 02.05.2026).

22.O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan Qozog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (2013-yil 14-iyun, Toshkent. 2013-yil 14-iyundan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 03.12.2022).

23.O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o‘rtasida “Xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi bitim (2018-yil 9-mart, Dushanbe. 2018-yil 6-iyundan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 02.05.2026).

24.Shaxslarni davlatlararo qidirish to‘g‘risida mustaqil davlatlar hamdo‘stligi ishtirokchi davlatlari o‘rtasida shartnoma Moskva, 2010 yil 10 dekabr.(O‘zbekiston Respublikasida 2011-yil 24-avgustdan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti:02.05.2026).

25.O‘zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o‘rtasida ushlab berish to‘g‘risida shartnoma 2000 yil 2 may, Dehli (O‘zbekiston Respublikasi uchun 2002-yil 22-maydan kuchga kirgan) O‘zbekiston Respublikasi bilan Eron Islom Respublikasi o‘rtasida ushlab berish to‘g‘risida bitim 2000-yil 11-iyun, Tehron (O‘zbekiston Respublikasai uchun

2003-yil 18-iyuldan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti:02.05.2026).

26.O‘zbekiston Respublikasi bilan Bolgariya Respublikasi o‘rtasida tutib topshirish to‘g‘risida shartnoma 2004-yil 11-noyabr, Sofiya (2004-yil 11-noyabrdan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti:02.05.2026).

27.O‘zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o‘rtasida tutib topshirish to‘g‘risida shartnoma 2003-yil 12-fevral, Toshkent (O‘zbekiston Respublikasi uchun 2004-yil 23-noyabrdan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti:02.05.2026).

28.O‘zbekiston Respublikasi bilan Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasida ushlab berish to‘g‘risida shartnoma 2014-yil 11-noyabr, Abu Dabi (O‘zbekiston Respublikasi uchun 2015-yil 21-dekabrdan kuchga kirgan) O‘zbekiston Respublikasi bilan Afg‘oniston Islom Respublikasi o‘rtasida ushlab berish to‘g‘risida bitim 2016-yil 17-oktyabr, Toshkent (O‘zbekiston Respublikasi uchun 2019-yil 7-avgustdan kuchga kirgan) // Elektron manba: <http://www.lex.uz> (murojaat vaqti:02.05.2026).

29.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 02.05.2026).

30.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 02.05.2026).

31. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi 371-son Qonuni // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 02.05.2026).

32. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdaqi “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi 344-son Qonuni // Elektron manba: [http: // www. lex.uz](http://www.lex.uz). (murojaat vaqti: 02.05.2026).